



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 11-sinf
o'zbek tili fanidan II chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf o‘zbek tili fanidan II chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Jahon adabiyoti namoyandalari. Grammatika: Ko‘chma ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi	1		
2.	Jahon adabiyoti namoyandalari. Grammatika: Ko‘chma ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi	1		
3.	Adabiy o‘qish: Rasul Hamzatovning hayoti va ijodiy faoliyati	1		
4.	Vatanga sadoqat. Grammatika: Ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanishi	1		
5.	Vatanga sadoqat. Grammatika: Ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanishi	1		
6.	Adabiy o‘qish: Ozod Sharofitdinovning “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi	1		
7.	O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi. Grammatika: Shakldosh va zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi	1		
8.	O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi. Grammatika: Shakldosh va zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi	1		
9.	Adabiy o‘qish: Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiy faoliyati. Ifodali o‘qish: “Toshkentnoma” poemasi dan parcha	1		
10.	O‘zbek sportchilarining shuhrati. Grammatika: Tasviriyl ifodalar	1		
11.	O‘zbek sportchilarining shuhrati. Grammatika: Tasviriyl ifodalar	1		
12.	Adabiy o‘qish: Tog‘ay Murodning hayoti va ijodiy faoliyati. “Yulduzlar mangu yonadi” asaridan parcha	1		
13.	3-BSB. (50 ball) Matn ustida ishlash	1		
14.	Takrorlash	1		
15.	O‘zbek turizmi. Grammatika: Nutq uslublari. So‘zlashuv uslubi	1		
16.	O‘zbek turizmi. Grammatika: Nutq uslublari. So‘zlashuv uslubi	1		
17.	Adabiy o‘qish: Shukrulloning hayoti va ijodiy faoliyati. “Og‘ir kunlar sevinchi” hikoyasi	1		
18.	Sinfdan tashqari o‘qish. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni	1		
19.	Sinfdan tashqari o‘qish. Said Ahmad “Ot bilan suhbat”	1		
20.	2-CHSB. (40 ball) Test topshiriqlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jahon adabiyoti namoyandalari. Grammatika: Ko‘chma ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi

Maqsadlar:

a) ta’limiy: o‘zbek tilida egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakillantirish.

b) tarbiyaviy: og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma’lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

POCHTACHILIKDAN YOZUVCHILIKKACHA

(Chingiz Aytmatov hayotidan xotiralar)

Buni hayot deydilar. Hayotda ba’zan odam o‘zi xohlamagan ishni ham qilishga majbur bo‘ladi. Ko‘plab go‘zal asarlar muallifi, nafaqat qirg‘iz xalqining, balki jahon kitobxonlarining mehriga sazovor bo‘lgan yozuvchi Chingiz Aytmatov urush yillari, o‘smirlik paytlari pochta bo‘lib xizmat qilgan. Yozuvchining bolalik xotiralarida urush yillari Shakar ovulida pochtachilik qilgani juda ta’sirchan ifodalangan: “Ovuldan biror oilaga qoraxat kelsa, oqsoqollar oldiga borib, ularga tushuntirar edik, – deb yozadi adib. – Ular avval halok bo‘lgan kishining qarindoshlarini chaqirib, bo‘lgan voqeadan xabardor qilib, o‘zaro maslahatlashgach, so‘ng meni ergashtirib, marhumning uyiga borishardi. Men oila a’zolariga qoraxatni o‘qib berardim... Ovulimizdagilar meni yaxshi tanishardi. Ular menga yomonlikni ravo ko‘rishmasdi, kimgadir qoraxatni topshirmoq, o‘limning sovuq xabarini yetkazmoq zimmamga yuklangan vazifa ekanini tushunishardi. Ammo gohida o‘z ishim bilan ko‘chalaridan o‘tib borayotgan bo‘lsam ham ayollar meni ko‘rib uvvos solishardi: “Yaqinlashma biznikiga, yo‘qol, qorang o‘chgur! Qani, daf bo‘l-chi!” deb qarg‘ashardi”.

Taniqli olim K.Asanaliyev shunday yozadi: “Chingiz Aytmatov o‘z so‘ziga, ijodiga yolg‘on aralashtirmagan, qahramonlariga hech qachon yolg‘on bir so‘z ham demagan, haqiqat qanchalik og‘ir bo‘lmasin, uni tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz chinch (haqiqatchi), rostgo‘y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos oq niyatdan kelib chiqadi”.

Chingiz Aytmatovning o‘zi bu haqdagi xotiralarini shunday bayon qilgan ekan: “Qishloq xo‘jaligi institutida o‘qib yurgan kezlrimda gazetalar uchun juda ko‘p maqolalar yozganman. Yoshlar hayotiga oid bir qator muammolarni dadil ko‘tarib chiqar edik. Gazetalarda

bosilayotgan maqolalarning sayozligi, quruq, hech kimga keraksiz gaplardan iboratligi meni ajablantirardi. Bunaqada gazetalarni hech kim o'qimay qo'yishi mumkin-ku, deya xavotirga ham tushardim. Shularni o'ylab, odamlarni qiziqтира oladigan faktlarni to'plab, maqola yozishga kirishganman. Ba'zan yaxshi chiqardi, ba'zan esa aytmoqchi bo'lgan fikrimni ifoda eta olmay qiynalardim".

Shunday qilib, urush yillari odamlarga "Qoraxat" tashib yurgan pochta nafaqat o'z millati, balki yuragidagi umuminsoniyatga bo'lgan mehri, boy tafakkuri va haqso'zligi tufayli umrboqiy ijodkorga aylandi. Ch. Aytmatovning ijodiy mahsuloti dunyoning 180 dan ortiq tillariga o'girilgan. Jahonda sanoqli adiblar egallagan cho'qqini turkiy adabiyot vakillaridan hozircha faqat Chingiz Aytmatovgina egallab turibdi. Bugungi kunda tadqiqotchilar adibning asarlari jahon tillarida 80 million nusxadan oshiq chop qilinganini e'tirof etishmoqda. Bu fakt adib nomini XX asrning eng taniqli Jan-Pol Sartr, Alber Kamyu, Maks Frish, Fridrix Dyurrenmatt, Gabriel Garsia Markes, Vargas Losa, Karlos Fuentes, Kendzaburo Oe kabi so'z san'atkorlari safidan joy olganini bildiradi. Adib eng so'nggi asarigacha inson qalbini, uning ko'nglini himoya qildi, inson hamda olam haqida o'z iztiroblarini, o'y-kechinmalarini, inson va insoniy fazilatlar haqidagi orzu-armonlarini asarlari orqali bayon etdi. Zotan, yozuvchining umri u yashagan yillar bilan emas, kitoblari yashagan asrlar bilan o'lchanadi.

(S. Tojiddinova)

Berilgan javoblarga savollar tuzing.

— _____?

Chingiz Aytmatov urush yillari, o'smirlik paytlari pochta bo'lib xizmat qilgan.

— _____?

Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashtirmagan, haqiqat qanchalik og'ir bo'lmasin, uni tag-tugigacha ayta olgan.

— _____?

Ch. Aytmatov har qanday vaziyatda o'zining mustaqil fikrini dalillab aytgan. O'rinsiz tortishish, his-hayajonga berilishni o'ziga ep ko'rmagan.

— _____?

— Ch. Aytmatov asarlari dunyoning 180 dan ortiq tillariga tarjima qilingan.

— _____?

— Adib inson va insoniy fazilatlar haqidagi orzu-armonlarini asarlari orqali bayon etdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Suhbat matnini davom ettiring.

— Darsdan keyin nima qilmoqchisan?

— Kutubxonaga o'tmoqchiman. Bugun bizga jahonga tanilgan adiblar haqida ma'lumotlar to'plash haqida topshiriq berildi.

— Bizga ham shunday topshiriq berildi. Qaysi adib haqida kitob olmoqchisan?

— Men Chingiz Aytmatov haqida kitob olmoqchiman.

— Nima uchun aynan Chingiz Aytmatov haqida?

— Men adibning "Oq kema" asari bo'yicha ishlangan filmni ko'rganman. Shuning uchun shu adib haqida ma'lumot to'plamoqchiman.

— Men esa....

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jahon adabiyoti namoyandalari. Grammatika: Ko‘chma ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi

Maqsadlar:

a) ta’limiy: o‘zbek tilida egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakllantirish.

b) tarbiyaviy: og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma’lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

BILIB OLING! Gap tarkibida so‘zlar o‘zining asl ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noni ham bildirishi mumkin. Masalan: *Tikansiz gul bo‘lmas* (o‘z ma’nosida). *Gul diyorim bor mening* (ko‘chma ma’noda).

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday ma’noni anglatishini tushuntiring.

1. Uzukning ko‘zi qimmatbaho toshdan ekan. _____
2. Onamning ko‘zlarida chiroyli. _____
3. Shuhratning “Oltin zanglamas” romanini o‘qiganmisan? _____
4. Buoltintangalar XV asrda chiqarilgan ekan. _____
5. O‘lkamizda oltin kuz boshlandi. _____
6. Tikansizgulbo‘lmas. _____
7. Azamat qo‘li gul usta. _____
8. Hovlimizda turli xil gullarbor. _____
9. Sentabr oyining boshida o‘qishlar boshlanadi. _____
10. Aql yoshda emas, boshda. _____

Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying. Gapda so‘zlar qanday ma’noda kelganini yozing.

So‘zlar: oltin, gul, zumrad, boshga, kumush, egri, yengil, boshidan, temir, boshigacha.

1. ___ diyorim bor mening, gulshan diyorim bor mening. _____
2. Onam maktabni _____ medal bilan bitirganlar. _____

3. Do'st _____ qarar, dushman oyoqqa. _____.

4. ___ qishdan, _____ bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.

_____.

5. Harbiy xizmat _____ intizomni talab qiladi. _____.

6. _____ ish qirq yildan keyin ham bilinadi. _____.

7. Ertalab _____ shabada esdi. _____.

8. Ko'chaning u _____ bu _____ olcha ekilgan ekan. _____.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Jahon adabiyoti namoyondalariga kimlarni misol qila olasiz?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat 11-sinf o'zbek tili fanidan II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega
bo‘ling!***

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11.O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars
ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**